



Madaniyat sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi

KASBIY STANDART

XALQ IJODIYOTI FAOLİYATI



“Xalq ijodiyoti faoliyati” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Madaniyat sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Xalq ijodiyoti faoliyati

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0013



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Xalq ijodiyoti faoliyati milliy madaniyatimizning ildizlari, xalqning ko'p asrlik tafakkuri, urf-odatlar va ma'naviy merosini saqlash hamda avloddan-avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan soha hisoblanadi. Ushbu kasbiy standart aynan shu yo'nalishdagi malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini baholashda me'yoriy-metodik asos sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur standart madaniyat va san'at muassasalarida kadrlar siyosati, ijodiy jamoalarning tashkil etilishi va boshqarilishi, xalq merosini saqlash va ommalashtirish, shuningdek, yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish jarayonlarida muhim o'rin tutadi.

Bu standart ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari yaratishda, kasbiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yishda, hamda folklor, etnografiya va xalq amaliy san'ati yo'nalishlaridagi faoliyatni tubdan rivojlantirishda yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ansambl – milliy kuy-qo'shiqlar, raqslar va marosimiy san'at turlarini uyg'unlashtirib ijro etuvchi, xalqning madaniy merosini sahnada zamonaviy san'at talablariga uyg'un holda namoyon etuvchi ijodiy jamoa;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

bolalar teatr studiyasi – yosh avlodda sahna san'atiga muhabbat uyg'otish, ularning badiiy-estetik didini rivojlantirish, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, ijodiy fikrlash va obrazli ifoda ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli mashg'ulotlar jarayoni;

dekorativ-amaliy va tasviriy san'at studiyasi – milliy amaliy bezak san'atini, qo'l mehnati va tasviriy san'at an'alarini o'rgatish, yoshlarni milliy madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda ijodkorlik va estetik tafakkurni rivojlantiruvchi ijodiy muhit;

folklor – xalqning ko'p asrlik ijtimoiy-tarixiy tajribasini, urf-odat va an'alarini, hayot tarzini aks ettiruvchi og'zaki va amaliy ijod namunalari

majmuasi bo'lib, u milliy ma'naviyatning ma'naviy qudrati va estetik jihatdan tarbiyaviy ahamiyatini ifoda etadi;

folklor-etnografik ansambl – xalq an'anaviy marosimlarini, urf-odat va turmush tarzini sahnaviy vositalar yordamida qayta tiklash, madaniy merosni hayotga yaqin holda namoyon qilish orqali milliy o'zlikni mustahkamlovchi ijodiy yo'nalish;

ijrochi – ashula aytuvchi yoki biror musika asbobida chaladigan musiqachi;

improvizator – oldindan tayyorgarliksiz musiqa asarini yaratuvchi, badiha tarzida ijro etish;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi 668-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (53, 61 va 78-79-moddalar);

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (113, 118, 185 va 209-417-moddalar);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-son-Qarori (IFUT-2.1).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Xalq ijodiyoti faoliyati	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi	Xalq ijodiyoti sohasidagi kasbiy faoliyatning bosh maqsadi – milliy ma’naviy merosimizni asrab-avaylash, uning ildizlari va an’analarini zamonaviy hayot talablariga uyg’un holda rivojlantirish, yosh avlod ongiga milliy o’zlik va estetik didni chuqur singdirishdir. Shu bilan birga, milliy urf-odatlarni qayta tiklash, folklor va etnografik yo’nalishdagi ijodiy jamoalarni tashkil etish, xalq amaliy va tasviriy san’atini targ’ib qilish orqali madaniy-ma’naviy hayotga teran mazmun bag’ishlash ko’zda tutiladi	
3.	IFUT bo’yicha seksiya, bo’lim, guruh, sinf va kichik sinf	S seksiyasi San’at, sport va dam olish 90-Badiiy ijod va ijro san’ati sohasidagi faoliyat 90.1-Badiiy ijod sohasidagi faoliyat 90.11-Adabiy ijod va musiqiy kompozitsiya sohasidagi faoliyat 90.11.0-Adabiy ijod va musiqiy kompozitsiya sohasidagi faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Ushbu standart xalq ijodiyotining turli yo’nalishlarini – teatr studiyalari, folklor va etnografik ansambllar, amaliy va tasviriy san’at studiyalari faoliyatini qamrab oladi. Uning asosiy yo’nalishlari milliy folklor, etnografik va amaliy san’at merosini saqlash va rivojlantirish yoshlar ongida estetik did, ijodiy qobiliyat va milliy iftixor tuyg’usini uyg’otish madaniy-ma’rifiy muassasalarda xalq ijodiyoti asosida zamonaviy ijodiy muhit yaratish mahalliy va xalqaro ko’rik-tanlovlarda faol ishtirok etish orqali milliy san’atning nufuzini yuksaltirish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro’yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	Malaka darajasi:
		34350008 Badiiy bezash studiyalari rahbari	5
		34350016 Bolalar teatr studiyasi rahbari	5
		34350032 Folklor ansambl rahbari	5
		34350033 Folklor-etnografik ansambli xonanda (sozanda)si	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	34350008 Badiiy bezash studiyalari rahbari	A1.5	Badiiy loyihalar va dekor ishlari bo'yicha rahbarlik qilish	A1.01.5	Dekorativ kompozitsiyalarni loyihalash va boshqarish
				A1.02.5	Yirik bezak ishlari uchun rang, kompozitsiya va material tanlash
				A1.03.5	O'quvchilarni ijodiy ko'rgazmalar va tanlovlarga tayyorlash
		A2.5	Studiyaning badiiy-ijodiy yo'nalishini belgilash	A2.01.5	Yillik ijodiy reja va badiiy konsepsiyani ishlab chiqish
				A2.02.5	Studiya zamonaviy dekorativ san'at usullarini joriy etish
				A2.03.5	Hamkor tashkilotlar bilan ijodiy loyihalar va ko'rgazmalarni tashkil etish
		A3.5	Studiyaning boshqaruv va tashkiliy faoliyatini olib borish	A3.01.5	Studiyaning moddiy-texnik bazasini boshqarish va yangilash
				A3.02.5	O'qituvchilar (yordamchilar) faoliyatini muvofiqlashtirish
				A3.03.5	Hisobotlar, rejalashtirish hujjatlari va tashkiliy ishlarni yuritish
2	34350016 Bolalar teatr studiyasi rahbari	B1.5	Bolalar teatr studiyasida sahna jarayonlarini professional darajada boshqarish	B1.01.5	Repetitsiya jarayonlarini kompleks rejalashtirish va ijodiy guruhlar ishini boshqarish
				B1.02.5	Milliy mavzudagi sahna asarining rejissyorlik yechimini ishlab chiqish va ijodiy jamoani boshqarish
				B1.03.5	Milliy obrazlar va ifoda vositalaridan foydalanib professional sahna ko'rinishlarini yaratish
		B2.5	Sahnaviy loyihalarni ishlab chiqish va namoyish qilish	B2.01.5	Bolalar ishtirokida etnografik sahnaviy tomoshalarni tayyorlash
				B2.02.5	Milliy mavzudagi spektakllarni namoyishga tayyorlash uchun ssenariy va rejissyorlik yechimlarini ishlab chiqish
				B2.03.5	Sahna mashqlari, harakat va nutq uyg'unligini boshqarish
		B3.5	Milliy teatr pedagogikasini rivojlantirish va metodik faoliyatni yo'lga qo'yish	B3.01.5	Xalq ijodiyoti asosida teatrlashtirilgan darslar uchun metodik yondashuv ishlab chiqish
				B3.02.5	Xalq marosimlari asosidagi sahna mashg'ulotlarini o'quv dasturiga integratsiya qilish
				B3.03.5	Etnografik va milliy yo'nalishdagi ijodiy loyihalar bo'yicha uslubiy ishlanmalar yaratish

3	34350032 Folklor ansambl rahbari	D1.5	Ansamblning sahnaviy faoliyatini tashkil etish	D1.01.5	Ansambl faoliyatini rejalashtirish va badiiy yo'nalishni belgilash
				D1.02.5	Sahna ko'rinishlari uchun milliy musiqiy materiallarni tanlash va tayyorlash
				D1.03.5	Repetitsiya jarayonini boshqarish va ijroni uyg'unlashtirish
		D2.5	Sahnaviy loyihalar va festivallarga tayyorgarlikni boshqarish	D2.01.5	Milliy festivallar uchun ansamblning ijodiy rejasi va sahnalashtirish jarayonini ishlab chiqish
				D2.02.5	Festivallar va ommaviy tadbirlar uchun maxsus sahnaviy ko'rinishlar yaratish
				D2.03.5	Namoyish oldi mashqlarni nazorat qilish va sahna tayyorgarligini yakuniy ko'rinishga keltirish
		D3.5	Folklor ijodiyotini rivojlantirish va metodik faoliyatni olib borish	D3.01.5	Folklor kuy va qo'shiqlarni o'rgatish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish
				D3.02.5	Yosh ijrochilar uchun vokal-musiqiy tayyorgarlik bo'yicha maxsus dasturlar yaratish
				D3.03.5	Milliy folklor materiallarini targ'ib qilishga qaratilgan ijodiy loyihalarni tashkil etish
4	34350033 Folklor-etnografik ansambl xonanda (sozanda)si	E1.5	Etnografik ansambl tarkibida ijro faoliyatini olib borish	E1.01.5	Marosimiy qo'shiqlar va kuylarni ijro etish
				E1.02.5	Milliy kuy va qo'shiqlarga dramatik ifoda, sahnaviy harakat qo'shish
				E1.03.5	Festival va ommaviy tadbirlarda ansambl bilan birgalikda ijro qilish
		E2.5	Sahnaviy etnografik ko'rinishlarni ishlab chiqish va boshqarish	E2.01.5	Etnografik qo'shiq va kuylarni sahna uchun tayyorlash
				E2.02.5	Sahnaviy ko'rinishlar va marosimiy sahnalarni uyg'unlashtirish
				E2.03.5	Etnografik qo'shiqlar asosidagi dramatzatsiya jarayonini boshqarish
		E3.5	Etnografik ansamblning ijodiy loyihalarini tashkil qilish va olib borish	E3.01.5	Ansambl bilan festival va ommaviy chiqishlarni tashkil etish
				E3.02.5	Milliy kuy-qo'shiqlarni teatr-kompozitsiya shaklida ijro etish
				E3.03.5	Ansambl ijrosini milliy an'analar asosida sahna talablari bilan uyg'unlashtirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Badiiy bezash studiyalari rahbari
Mashg'ulot nomining kodi:	34350
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1-yil davomida badiiy bezash, dekorativ san'at yoki o'quv faoliyati bilan shug'ullangan bo'lishi kerak. O'quvchilar, ijodiy guruh yoki kichik studiyalar ishini boshqarish bo'yicha amaliy tajriba. Murakkab dekorativ kompozitsiyalar, ko'rgazmalar va badiiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etgan bo'lishi kerak
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - Ishga qabul qilinishi uchun nomzod kamida 18 yoshga to'lgan, jinsiga qarab (ayol/erkak) kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim; - Ish boshlashdan avval nomzod dastlabki tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tishi va sog'lig'i kasb xususiyatiga mos kelishi talab etiladi; - Nomzod jismoniy bardam, ruhiy barqaror, stress holatlariga chidamli va uzoq vaqt davomida ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur; - Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari bo'yicha ko'rsatmalarni o'zlashtirganligi hamda favqulodda holatlarda tezkor va xavfsiz qaror qabul qilish salohiyatiga ega bo'lishi zarur; - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash;

	<p>- Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish Ko'nikmalariga ega bo'lish;</p> <p>- Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish;</p> <p>- Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	O'rta professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Folklor ansambl rahbari
	5	Folklor-etnografik ansambli xonanda (sozanda)si
	5	Badiiy bezash studiyalari rahbari
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalar	
A1.5- Badiiy loyihalar va dekor ishlari bo'yicha rahbarlik qilish	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Dekorativ kompozitsiya loyahasini eskiz va sxema asosida ishlab chiqish	
	2. O'quvchilar ishini bosqichma-bosqich nazorat qilish va yo'naltirish	
	3. Loyihaning yakuniy ko'rinishini tasdiqlash va ish sifatini tekshirish	
	Ko'nikma:	
	Dekorativ kompozitsiyalarni kompleks va mantiqiy tarzda loyihalash	
	O'quvchilarning ish jarayonini boshqarish va ko'rsatmalar berish	
	Rang, shakl va material uyg'unligini baholash va takomillashtirish	
	Bilim:	
	Dekorativ kompozitsiyalarni yaratish nazariyasi va metodikasi	
Rang, shakl va faktura uyg'unligini boshqarish tamoyillari		
Pedagogik nazorat va o'quvchilarning ijodiy jarayonini qo'llab-quvvatlash usullari		

	A1.02.5- Yirik bezak ishlari uchun rang, kompozitsiya va material tanlash	Mehnat harakatlari:
		1. Yirik bezak ishlariga mos materiallar va rang palitrasini tanlash
		2. Ish jarayonida o'quvchilarni materiallar bilan to'g'ri ishlashga yo'naltirish
		3. Murakkab elementlar va butun kompozitsiyani tekshirish, sifatini nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Yirik va murakkab badiiy ishlarda rang uyg'unligini tanlash
		Materiallar bilan ishlashda xavfsizlik va samaradorlikni ta'minlash
		Bezak elementlarini estetik va texnik jihatdan uyg'unlashtirish
		Bilim:
	Murakkab dekorativ ishlar uchun materiallar va ularning xossalari	
	Rang va kompozitsiya nazariyasi, vizual balans tamoyillari	
	Yirik badiiy ishlarni boshqarish va pedagogik rahbarlik metodikasi	
	A1.02.5- O'quvchilarni ijodiy ko'rgazmalar va tanlovlarga tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. O'quvchilar ishlarini ko'rgazma va tanlov talablari asosida saralash va tayyorlash
		2. Ijodiy ishlarga yakuniy tuzatishlar kiritish va amaliy maslahatlar berish
3. Ko'rgazma yoki tanlov kunida ishlarni o'rnatish, taqdimot va nazoratni tashkil etish		
Ko'nikma:		
Ko'rgazma va tanlovlar uchun badiiy ishlarni vizual jihatdan tartibga solish		
O'quvchilarning ishlarini professional darajada yakuniy ko'rinishga keltirish		
Tanlov yoki ko'rgazma jarayonida o'quvchilarga amaliy ko'rsatmalar berish		
Bilim:		
Ko'rgazma va tanlovlar uchun badiiy ishlarni tayyorlash tamoyillari		
Vizual ekspozitsiya, prezentatsiya va kompozitsion me'yorlar		
O'quvchilar ishini baholash va ijodiy rag'batlantirish usullari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Murakkab badiiy loyihalarni boshqarish va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish	
	2. Rang, material va kompozitsiya tanlovini o'z vakolatida amalga oshirish	
	3. Mashg'ulot va ijodiy jarayonlarni mustaqil rejalashtirish va boshqarish	

A2.5- Studiyaning badiiy- ijodiy yoʻnalishini belgilash	A2.01.5- Yillik ijodiy reja va badiiy konsepsiyani ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Studiyaning yillik oʻquv va ijodiy faoliyati uchun reja tuzish
		2. Har bir mavzu va loyiha uchun badiiy konsepsiyani ishlab chiqish
		3. Rejani amalga oshirish jarayonida ijodiy guruh ishini nazorat qilish va boshqarish
		Koʻnikma:
		Yillik ijodiy reja va mashgʻulot dasturini bosqichma-bosqich tuzish
		Badiiy konsepsiyani loyiha talablari va pedagogik maqsadlar bilan uygʻunlashtirish
		Guruh ishini samarali boshqarish va ijodiy jarayonni nazorat qilish
		Bilim:
		Badiiy studiya faoliyatini yillik reja asosida tashkil etish metodikasi
	Dekorativ sanʼat va ijodiy konsepsiyalarni yaratish tamoyillari	
	Pedagogik boshqaruv va ijodiy jarayonni tashkil etish nazariyasi	
	A2.02.5- Studiyaning zamonaviy dekorativ sanʼat usullarini joriy etish	Mehnat harakatlari:
		1. Zamonaviy badiiy texnikalar va uslublarni tanlash va amaliyotga tadbqiq qilish
		2. Oʻquvchilarni yangi usullar boʻyicha oʻrgatish va mashgʻulotlarni tashkil etish
		3. Natijalarni baholab, jarayonni takomillashtirish va yangiliklarni joriy etish
		Koʻnikma:
		Zamonaviy dekorativ sanʼat texnikalarini tushunish va amalda qoʻllash
		Oʻquvchilarni yangi texnika va usullar boʻyicha yoʻnaltirish
Natijalarni tahlil qilib, ijodiy jarayonni optimallashtirish		
Bilim:		
Zamonaviy dekorativ sanʼat usullari va ularning pedagogik qoʻllanilishi		
Innovatsion badiiy texnikalarni oʻrganish va joriy etish nazariyasi		
Oʻquvchilarning ijodiy oʻsishini qoʻllab-quvvatlash va nazorat qilish		
	Mehnat harakatlari:	
	1. Hamkor tashkilotlar bilan loyihalar va koʻrgazmalarni rejalashtirish va kelishish	
	2. Oʻquvchilar ishlarini koʻrgazmalar va loyiha talablari asosida tayyorlash	

	A2.03.5- Hamkor tashkilotlar bilan ijodiy loyihalar va ko'rgazmalarni tashkil etish	3. Loyihaning barcha jarayonini nazorat qilish va yakuniy natijani taqdim etish	
		Ko'nikma:	
		Hamkorlik va loyihalarni tashkil etish	
		Ko'rgazma va loyiha jarayonini boshqarish va o'quvchilarga yo'naltirish	
		Badiiy ishlarni tanlash, tayyorlash va prezentatsiya qilish	
		Bilim:	
		Ijodiy loyihalarni tashkil etish va hamkorlik asoslari	
		Ko'rgazma va tanlovlar uchun badiiy ishlarni tayyorlash nazariyasi	
		Badiiy studiya va tashqi tashkilotlar o'rtasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilish metodikasi	
		Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Studiya badiiy-ijodiy yo'nalishini belgilash va tegishli qarorlarni mustaqil qabul qilish
2. Mashg'ulotlar, loyihalar va ko'rgazmalarni tashkil etishda o'z vakolatida mustaqil ish yuritish			
3. Metodik va tashkiliy masalalarni hal qilishda mustaqil qarorlar qabul qilish			
A3.5- Studiyaning boshqaruv va tashkiliy faoliyatini olib borish	A3.01.5- Studiyaning moddiy-texnik bazasini boshqarish va yangilash	Mehnat harakatlari:	
		1. Moddiy-texnik bazani inventarizatsiya qilish va ta'minotini nazorat qilish	
		2. Kerakli badiiy materiallar, uskunalar va jihozlarni yangilash va sotib olish jarayonini tashkil etish	
		3. Texnik va material resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash	
		Ko'nikma:	
		Moddiy-texnik bazani boshqarish va saqlash	
		Resurslarni rejalashtirish va optimal taqsimlash	
		Uskuna va materiallardan xavfsiz va samarali foydalanish	
		Bilim:	
		Badiiy studiya uchun zarur material va jihozlarni xossalari	
		Moddiy-texnik bazani boshqarish metodikasi	
		Inventarizatsiya, sotib olish va yangilash jarayonlari nazariyasi	
		A3.02.5- O'qituvchilar (yordamchilar) faoliyatini muvofiqlashtirish	Mehnat harakatlari:
			1. O'qituvchilar va yordamchi xodimlar vazifalarini taqsimlash va rejalashtirish
			2. Mashg'ulot jarayonini nazorat qilish va pedagogik yo'naltirish berish
3. Faoliyat samaradorligini baholab, takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish			

		Ko'nikma:
		Pedagogik guruh ishini boshqarish va muvofiqlashtirish
		Mashg'ulot jarayonini monitoring qilish va takomillashtirish
		Xodimlar ishini baholash va motivatsiya qilish
		Bilim:
		Pedagogik jarayonni muvofiqlashtirish metodikasi
		Xodimlar ishini baholash va rag'batlantirish usullari
		Studiya ichidagi tashkilotchilik va boshqaruv prinsiplari
	A3.03.5- Hisobotlar, rejalashtirish hujjatlari va tashkiliy ishlarni yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Yillik, choraklik va oylik reja-hisobotlarni tuzish va taqdim etish
		2. Mashg'ulot, ko'rgazma va tanlovlar faoliyatini hujjatlashtirish
		3. Tashkiliy va ma'muriy ishlarni yuritish, ish jarayonini nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Hisobot va rejalashtirish hujjatlarini tayyorlash va yuritish
		Tashkiliy ishlarni samarali rejalashtirish va boshqarish
		Ma'lumotlarni tizimli tarzda yig'ish va tahlil qilish
		Bilim:
		Badiiy studiya faoliyati bo'yicha hujjatlarni yuritish tartibi
	Rejalashtirish va hisobot tayyorlash metodikasi	
Tashkiliy ishlarni nazorat qilish va boshqarish nazariyasi		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Studiyaning barcha faoliyati – o'quv jarayoni, ijodiy loyihalar, ko'rgazmalar va tanlovlarni rejalashtirish va natijasini ta'minlash uchun javobgarlik	
	2. Moddiy-texnik bazaning saqlanishi, yangilanishi va samarali ishlatilishi uchun javobgarlik	
	3. O'qituvchilar, yordamchi xodimlar va o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish va sifatini ta'minlash uchun mas'ullik	
Texnik va/yoki texnologik talab:	<ul style="list-style-type: none"> - Dekorativ ishlar uchun akril, tempera va dekorativ qoplamalar; - Loyihalashtirish va dizayn uchun professional qalam, o'lchash va chizish asboblari; - Yirik maket va bezaklar uchun mustahkam karton, yog'och va boshqa materiallar; - Ko'rgazmalar va yirik dekorlar uchun montaj vositalari (tornavida, bolg'a, lenta, skotch); - Studiya moddiy-texnik bazasini boshqarish uchun 	

	<p>inventarizatsiya jurnali, kompyuter va dasturiy ta'minot (Excel, dizayn dasturlari);</p> <ul style="list-style-type: none">- O'qituvchilar va yordamchilar faoliyatini kuzatish va boshqarish uchun nazorat listlari, metodik qo'llanmalar;- Yirik loyihalar va ko'rgazmalarni tashkil etish uchun transport vositalari va montaj jihozlari (stendlar, osilgan dekorlar, yoritish texnikasi).
--	---

Kasbning nomi:	Bolalar teatr studiyasi rahbari
Mashg'ulot nomining kodi:	34350
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Teatr yoki sahna san'ati bo'yicha boshlang'ich 1-yillik amaliy tajriba Bolalar bilan individual yoki kichik guruh mashg'ulotlarini olib borish tajribasi Oddiy sahnaviy mashqlar va mini-rol ijrosida ishtirok etgan bo'lishi kerak
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - Ishga qabul qilinishi uchun nomzod kamida 18 yoshga to'lgan, jinsiga qarab (ayol/erkak) kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim; - dastlabki tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tishi va sog'lig'i kasb xususiyatiga mos kelishi talab etiladi; - Nomzod jismoniy bardam, ruhiy barqaror, stress holatlariga chidamli va uzoq vaqt davomida ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur; - Teatr mashg'ulotlari va sahnaviy tayyorgarlik jarayonida katta jamoa bilan samarali hamkorlik qilish, turli yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi; - Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari bo'yicha ko'rsatmalarni o'zlashtirganligi hamda favqulodda holatlarda tezkor va xavfsiz qaror qabul qilish salohiyatiga ega bo'lishi zarur; - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya

	texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Folklor ansambl rahbari
	5	Folklor-etnografik ansambli xonanda (sozanda)si
	5	Badiiy bezash studiyalari rahbari
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5- Bolalar teatr studiyasida sahna jarayonlarini professional darajada boshqarish	B1.01.5- Repetitsiya jarayonlarini kompleks rejalashtirish va ijodiy guruhlar ishini boshqarish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Spektaklning to'liq ijodiy jarayoniga mos bo'lgan batafsil repetitsiya rejasini ishlab chiqish
		2. Aktyorlar, musiqa, raqs va texnik guruhlar ishtirokini uyg'unlashtirib, repetitsiya jarayonini boshqarish
		3. Jarayon davomida yuzaga kelgan ijodiy va texnik muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish
		Ko'nikma:
		Murakkab ijodiy jarayonlarni tashkil qilish va boshqarish
		Bir nechta ijodiy guruhlar o'rtasida samarali kommunikatsiya o'rnatish
		Repetitsiya jarayonini vaqt, bosqich va natija bo'yicha optimallashtirish
		Bilim:
Rejissyorlik jarayonlari, sahna texnologiyasi va ansambl ishlash tamoyillari		

		Ijodiy jamoa psixologiyasi, motivatsiya va boshqaruv usullari
		Repetitsiya jarayonining pedagogik, texnik va badiiy talablari
	B1.02.5- Milliy mavzudagi sahna asarining rejissyorlik yechimini ishlab chiqish va ijodiy jamoani boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Milliy mavzudagi asar mazmuni, obrazlari va marosim unsurlariga asoslangan rejissyorlik konsepsiyasini yaratish
		2. Sahna joylashuvi, ritm va obraz yechimlarini ishlab chiqish va jamoaga tushuntirish
		3. Ijodiy jamoa (aktyorlar, musiqachilar, dizaynerlar) ishini rejissyorlik talqini asosida boshqarish
		Ko'nikma:
		Milliy mavzularni badiiy va zamonaviy rejissyorlik yondashuvlari orqali talqin qilish
		Jamoaga sahna tasavvurini aniq yetkazish va ijodiy jarayonda yetakchilik qilish
		Sahna asarining dramatik tuzilmasini shakllantirish va uni boshqarish
		Bilim:
		Milliy teatr, folklor, marosim san'ati va an'anaviy obrazlar
		Rejissyorlik dramaturgiyasi, sahna ritm, konflikt va kompozitsiya asoslari
		Spektakl yaratuvchi bo'limlar (musiqa, yorug'lik, dekor, kostyum) bilan ishlash qoidalari
	B1.03.5- Milliy obrazlar va ifoda vositalaridan foydalanib professional sahna ko'rinishlarini yaratish	Mehnat harakatlari:
		Milliy obrazlar, marosim unsurlari, raqs va musiqiy elementlarni uyg'unlashtirgan sahna ko'rinishlarini yaratish
		Aktyorlarga obrazning xarakter, harakat, intonatsiya va ifoda vositalarini chuqur o'rgatish
		Tayyor sahna ko'rinishlarini professional sahnalashtirish talablari asosida sozlash va mukammallashtirish
		Ko'nikma:
		Obraz yaratishda milliy san'at, marosimlar va folklor elementlarini samarali qo'llash
		Professional sahna ifodasi (ovozi, harakat, ritm, dinamika)ni boshqarish
		Sahnadagi badiiy uyg'unlik musiqa-harakat-nutq-dekor uyg'unligini yarata olish
		Bilim:
		Milliy obraz yaratish texnologiyasi, xalq marosimlari va folklor estetikasining asoslari
	Professional sahna madaniyati, aktyor mahorati, ifoda vositalari va badiiy kompozitsiya	
	Dekor, kostyum, rekvizit va sahna dizayni	

	Mas'uliyat mustaqillik: va	<p>1. Sahna jarayonlarini rejalashtirish, mashg'ulotlar ketma-ketligini belgilash, sahna harakatlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda mustaqil ishlash</p> <p>2. Repetitsiya jarayonida yuzaga keladigan pedagogik, ijodiy yoki texnik muammolarni mustaqil hal qilish va zarur bo'lsa, sahna jarayoniga innovatsion yondashuvlar kiritish</p> <p>3. Teatr studiyasi faoliyatini takomillashtirish, ijodiy guruhni rivojlantirish, yangi sahna loyihalarini joriy etish bo'yicha mustaqil tashabbus ko'rsatish va o'z faoliyatini mas'uliyat bilan baholash</p>	
B2.5- Sahnaviy loyihalarni ishlab chiqish va namoyish qilish	B2.01.5- Bolalar ishtirokida etnografik sahnaviy tomoshalarni tayyorlash	Mehnat harakatlari:	
		1. Etnografik materiallar asosida sahna ko'rinishining dramaturgik tuzilmasini yaratish	
		2. Bolalar obrazlarining harakat, nutq va sahnaviy xulqini to'g'ri yo'naltirib repetitsiyalarni olib borish	
		3. Tayyor sahna ko'rinishining musiqa, raqs, rekvizit va dekor bilan uyg'unligini yakuniy tekshirish	
		Ko'nikma:	
		Etnografik mavzularni sahnaviy shaklga moslashtirish va sahnalashtirish	
		Bolalar bilan murakkab ijodiy jarayonni boshqarish	
		Sahnadagi badiiy, texnik va ijro uyg'unligini ta'minlash	
		Bilim:	
		Xalq etnografiyasi, marosimlari va milliy an'analari	
		Bolalar teatr pedagogikasi va yosh xususiyatlari	
		Sahna texnologiyasi, dekor, rekvizit va yorug'lik ishlanmalari asoslari	
		B2.02.5- Milliy mavzudagi spektakllarni namoyishga tayyorlash uchun ssenariy va rejissyorlik yechimlarini ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
			1. Spektakl uchun milliy an'analarga asoslangan dramaturgik ssenariy ishlab chiqish
2. Har bir sahnaning rejissyorlik yechimini badiiy jihatdan shakllantirish			
3. Ssenariyga mos sahna texnikasi, dekor va musiqiy yechimlarni joriy etish			
Ko'nikma:			
Dramaturgiya, ssenariy yaratish va sahna kompozitsiyasini qurish			
Rejissyorlik yechimlarini jamoaga aniq tushuntirish va boshqarish			
Milliy obrazlar va marosim unsurlarini sahna talqinida qo'llash			
Bilim:			
Milliy folklor, urf-odatlar va marosim san'atining dramatik xususiyatlari			
Rejissyorlik nazariyasi, spektakl tuzilishi va kompozitsiya asoslari			

		Ssenariy yozish metodikasi va dramaturgik qurilish tamoyillari
	B2.03.5- Sahna mashqlari, harakat va nutq uyg'unligini boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Harakat, ritm va nutqni uyg'unlashtiruvchi murakkab sahna mashqlarini ishlab chiqish
		2. Aktyorlar bilan ovoz, intonatsiya, plastika va ritm mashqlarini kompleks tashkil qilish
		3. Mashqlar jarayonida sahna xavfsizligini va texnik talablarni nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Harakat–nutq–ritm uyg'unligini ta'minlaydigan murakkab sahna mashqlarini boshqarish
